

**SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY
SHERIKLIKNING ROLI**

Jumayeva Guljahon Xolmamat qizi

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi BSITI bosh mutaxassisi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi BSITI bosh mutaxassisi

***Annotatsiya.** Tezis sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSH)ning roli va ahamiyatini yoritadi. DXSH modeli sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali innovatsiyalarni kiritish, texnologik yangiliklar joriy etish, va tibbiy xizmatlarning barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** davlat-xususiy sheriklik, davlat-xususiy sheriklik loyihasi, sog'liqni saqlash, tibbiy infratuzilma, tibbiy xizmatlar sifati, me'yoriy hujjatlar, sog'liqni saqlash islohotlari.*

***Abstract.** The thesis highlights the role and importance of Public-Private Partnership in healthcare (PPP). The PPP model helps to develop health infrastructure, improve the quality of medical services, and effectively allocate resources between the public and private sectors. By attracting private investment, the possibilities of introducing innovation, introducing technological innovations, and ensuring the sustainability of medical services are considered.*

***Key words:** public-private partnership, public-private partnership project, health care, medical infrastructure, quality of Medical Services, regulatory documents, health reform.*

Bugungi kunda O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalari mamlakatda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishda va aholiga sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. DXSH modeli yordamida yangi kasalxonalar, poliklinikalar va tibbiy markazlar qurilib, mavjud infratuzilma modernizatsiya qilinmoqda. Shuningdek, farmatsevtika sohasida ham xususiy sektor ishtiroki kuchaymoqda. Kelgusida DXSH orqali tibbiyot xizmatlarining sifatini oshirish, innovatsiyalarni tatbiq etish va qamrovni kengaytirish kutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-apreldagi PQ-4290-sonli "Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish va aholi uchun sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash maqsadida qabul qilingan. Ushbu qaror xususiy sog'liqni saqlashni yanada rivojlantirish, ushbu sohada davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslarini yaratish, investitsiyalarni, ayniqsa, chet el investitsiyalarini jalb etishni kengaytirish, shuningdek, aholining yuqori texnologik tibbiy xizmatlar va uskunalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishda nodavlat sektori ishtirokini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Bundan tashqari sog'liqni saqlash sohasida tovarlarni etkazish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish yo'nalishlarida amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Bu kabi loyihalarda davlat bilan xususiy sherik o'rtasidagi shartnoma 49 yildan oshmasligi, bitim muddati yakunlangandan so'ng davlat sherigiga topshirilishi, bu sohalarda investorni qo'llab-quvvatlash maqsadida mahalliy bank muassasalaridan imtiyozli va maqsadli kredit olish imkoniyatlari belgilab qo'yilgan. Mana shular bilan birgalikda, soliq imtiyozlari ham xususiy holatiga ko'ra berilishi nazarda tutilgan. Mana shu davlat va xususiy sherik mexanizmining faol ishlashi bir qator muammolar va iqtisodiy samarani yuzaga keltirishi mumkinligi isbotlangan.

Yuqoridagi maqsad va samaradorlikdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan respublikaning mas'ul vazirlik va idoralari bilan birgalikda sog'liqni saqlash sohasida bugungi kunga qadar qiymati 54,42 mln AQSH dollari bo'lgan jami 52 ta loyihalar amalga oshirilgan.

Yillar davomida ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2019- 2021-yillar davomida sog'liqni saqlash sohasida 26 ta DXSH loyihalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan. 2022-yil davomida 20 ta DXSH loyihalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan va jami qiymati 12,7 mln. AQSH dollari bo'lgan 16 ta loyiha bo'yicha DXSH bitimi imzolangan. Shuningdek, qiymati 2,50 mln. AQSH dollari bo'lgan 2 ta DXSH loyihasi bo'yicha tender bosqichlari yakunlanib, DXSH bitimi imzolanishi arafasida.

Bundan tashqari, umumiy qiymati 20,76 mln. AQSH dollari miqdoridagi 2 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha tender jarayonlari davom etmoqda. Xususan, 2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan quyidagi **1 ta** yirikloyiha bo'yicha tender jarayonlari davom etmoqda: Xalqaro moliya korporatsiyasining maslahat ko'magida Farg'ona, Samarqand va Xorazm viloyatlarida Nurli (Radio) terapiya tibbiyot markazini tashkil etish loyihasining konsepsiyasi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi va tender hujjatlari ishlab chiqilib, tenderning 1-bosqichi 2022-yil 30-apreldan 2022-yil 15-iyulgacha davom etdi va takliflar baholanib, 1-bosqichdan o'tgan 3 ta konsorsiumlar e'lon qilindi. Loyiha qamrovidan Toshkent viloyatini chiqarib tashlandi va tenderning 2-bosqichi e'lon qilinishi kutilmoqda (loyihaning dastlabki qiymati – 20mln AQSH dollari; loyiha muddati – 12 yil).

Shuningdek, 2022-2026-yillar davomidaamalgaoshirilishi rejalashtirilgan 2 tayirikloyihalar bo'yicha tegishli ishlar olib borilmoqda. Jumladan:

- Xalqaro moliya korporatsiyasining maslahat ko'magida Farg'ona viloyatida ko'p tarmoqli shifoxona tashkil etish loyihasi bo'yicha Jahon bankining "Institutsional salohiyatni oshirish" kredit liniyasi hisobidan yuridik va texnik maslahatchilar jalb qilindi va hozirda loyiha konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda (loyihaning dastlabki qiymati – 82mln AQSH dollari; loyiha muddati – 22 yil);

Osiyo taraqqiyot bankining maslahat ko'magida Andijon va Buxoro viloyatlarida poliklinika va tibbiyot markazlarini tashkil etish loyihasi bo'yichamaslahat xizmatini ko'rsatish bitimi imzolandi. Bugungi kunda loyihani amalga oshirishda maslahatchilarni jalb qilish uchun "Asia Pacific Project

Preparation Facility — AP3F” (Osiyo-tinch okeani loyihalarini tayyorlash jamg'armasi) tomonidan 2,5 mln. AQSH dollarida grant mablag'lari ajratilishi yuzasidan muzokoralar olib borilmoqda va tegishli konsultantlarni jalb qilish ishlari davom etmoqda (loyihaning dastlabki qiymati – 240 mln AQSH dollari; loyiha muddati – 22 yil).

Xulosa. Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik bo'yicha O'zbekistonda kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator muhim ishlar mavjud. Ushbu sohada DXSHni samarali tashkil etish sog'liqni saqlash tizimining sifatini oshirish, moliyalashtirishning barqarorligini ta'minlash, xususiy sektorning innovatsiyalarini jalb qilish va aholini yuqori sifatli tibbiy xizmatlar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan, tibbiy xizmatlarni raqamli shaklda ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, masofaviy tibbiyot xizmatlari (telemeditsina), elektron tibbiy kartalar va sun'iy intellekt asosida diagnostika xizmatlarini rivojlantirish va DXSH doirasida xususiy sektor tomonidan yangi davolash usullari va texnologiyalarini joriy qilish imkoniyatlarini oshirish, bu borada xalqaro tajribadan foydalanish hamda xususiy sektor ishtirokida chekka va kam rivojlangan hududlarda tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, tibbiyot sohasidagi kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish uchun yangi o'quv dasturlari va treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi O'RQ-537-sonli qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4329270>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-apreldagi PQ-4290-sonli “Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4291567>
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-sayti. <https://www.imv.uz/>